

**O'ZBEK ADABIYOTIDA O'ZINING NOZIK LIRIK ASARLARI
BILAN ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR**

Toshkent shahar Uchtepa tumani

287 - maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Xushvaktova Nilufar Asamovna

Annoaysiya: Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), "Xatti Boburiy", "Harb ishi", Aruz haqidagi risolalasi esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Kalit so'zlari: Zahiriddin Muhammad Bobur, Markaziy Osiyo va Xuroson, Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jivanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik kilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan Bobur qalamni qilichga

almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1505–1515 yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So‘ng o‘z mavqeiini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519–1525 yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526 yil aprel oyida Panipatda Hindiston Sultoni Ibrohim Lo‘di bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma‘lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro‘po tarixchiligida “Buyuk mo‘g‘ullar” nomi bilan “g‘alati mashhur” bo‘lgan, aslida “Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bobur bu g‘alabadan keyin uzoq yashamadi – 1530 yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko‘ra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar. Biroq qisqa bir vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bog‘-rog‘lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo‘lgan me‘moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o‘g‘illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi.

Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir ma'naviy, ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida javaharlal Neru shunday yozgan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi". Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari "Boburnoma"dir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni, ikkinchi qismi – XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi – XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. "Boburnoma"da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston xaqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. "Boburnoma"ni varaqlarkanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalklariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. "Boburnoma"da keltirilgan bu tarzdagi ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond,

Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Ulug‘bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. “Boburnoma” – Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks ettirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug‘rofiy mavqei, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘ziga qamrab olgan shoh asardir. Shu bois “Boburnoma” tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda. Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, ingliziyalik olimlar J. Leyden, V. Zrskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. “Boburnoma”ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar. Ma’lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rusiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX–XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Salye, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiye, S. Azimjonova, A. Kdymov kabi olimlarning sa’y-harakatlari bilan “Boburnoma” bir necha bor rus va o‘zbek tillarida chop etiddi, ularga so‘zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining

ma'naviy mulkiga aylantirildi, uning she'rlari ham bir necha bor nashr etildi. Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in'ikosini "Boburnoma"da ko'rgan bo'lsak, ularning shoir ruhiyatida qanday aks etgani uning she'rlarida namoyon bo'ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarida aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

Adaviyotlar

1. "Ma'naviyat yulduzlari" (*Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999*) kitobidan olindi.
2. Bobur. Tanlangan asarlar. -T.: 1958;
3. Bobur. Asarlar. Uch jildlik.-T.: Fan, 1965-66;
4. Bobur. Boburnoma. -T.: 1960, 1989;
5. Yuldashev, O. (2021). РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. НАУКА И МИР.